



UDK:37:013

Zaynab SHERMAMATOVA,
SamDChTI katta o'qituvchisi
E-mail: shermamatovazaynab@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

TABU HODISASINING LINGVISTIK TABIATI VA UNING IJTIMOY FUNKSIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada lingvistik tabu hodisasi va uning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabu so'zlarning leksik va semantik xususiyatlari, ularning evfemik vositalar orqali nutqda qo'llanilishi hamda ijtimoiy qadriyatlarini saqlashdagi roli batafsil yoritilgan. Shuningdek, tabu hodisasi tilning rivojlanish jarayoni, madaniy qadriyatlarining mustahkamlanishi va ijtimoiy tartibni ta'minlash bilan uzviy bog'liqligi namoyon qilinadi. Maqola turli adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar asosida lingvistik, etnografik va sotsiolingvistik jihatlarni birlashtirgan holda, mavzuni keng qamrovli tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tabu, lingvistik tabu, evfemizm, ijtimoiy funksiyalar, til va jamiyat, semantik o'zgarish, madaniy qadriyatlar.

THE LINGUISTIC NATURE OF TABOO AND ITS SOCIAL FUNCTIONS

Annotation

This article analyzes the linguistic phenomenon of taboo and its social functions in society. The study examines the lexical and semantic features of taboo words, their use in speech through euphemisms, and their role in preserving social and cultural values. Furthermore, it demonstrates that taboo is closely connected with language development, the reinforcement of cultural values, and the maintenance of social order. The article draws on various scholarly sources and research, integrating linguistic, ethnographic, and sociolinguistic perspectives to provide a comprehensive analysis of the subject.

Key words: Taboo, linguistic taboo, euphemism, social functions, language and society, semantic change, cultural values.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ТАБУ И ЕГО СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется лингвистическое табу и его социальные функции в обществе. Исследование рассматривает лексические и семантические особенности табу-слов, их использование в речи через эвфемизмы, а также их роль в сохранении социальных и культурных ценностей. Кроме того, показано, что табу тесно связано с процессом развития языка, укреплением культурных ценностей и поддержанием социального порядка. Статья опирается на различные научные источники и исследования, объединяя лингвистические, этнографические и социолингвистические подходы, что позволяет провести комплексный анализ исследуемой темы.

Ключевые слова: Табу, лингвистическое табу, эвфемизм, социальные функции, язык и общество, семантические изменения, культурные ценности.

Kirish. Tilshunoslik tarixida tabu hodisasi doimo muhim ilmiy masalalardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Chunki tabu fenomeni faqat til doirasida emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlari, diniy e'tiqodlari, psixologik qarashlari va ijtimoiy munosabatlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Tabu so'zlar jamiyat a'zolari tomonidan ayrim tushunchalarni ochiq ifoda etmaslik, ularni yumshoqroq shaklda bayon etish yoki butunlay nutqdan chiqarib tashlash orqali amalga oshiriladi. Bu esa til va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqaning yorqin ifodasi sifatida qaraladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan tabu hodisasi ikki asosiy yo'nalishda tadqiq qilinadi: birinchisi, lingvistik tabiati, ya'ni tabu birliklarning fonetik, leksik, semantik va pragmatik ko'rinishlari; ikkinchisi esa, ijtimoiy funksiyalari, ya'ni tabu orqali jamiyatda axloqiy, diniy va madaniy me'yorlarning mustahkamlanishi. Shu sababli, tabu fenomenini o'rganish faqat tilshunoslik doirasida emas, balki sotsiologiya, falsafa, madaniyatshunoslik va psixologiya bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. K.Allan, K.Burridjning asarda tabu lingvistik hodisa sifatida chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar tabu so'zlarni nutqiy senzura,

evfemizm, odobli nutq jarayoni bilan bog'laydi. Ular tilning ijtimoiy boshqaruv vositasi sifatida tabu rolini ko'rsatadi. [1] Bronislav Malinovskiy tabu hodisasini antropologik va diniy kontekstda o'rganib, uni jamiyatdagi axloqiy va diniy nazorat mexanizmi sifatida ko'rsatadi. U tabular inson ruhiyati va marosimiy amaliyotlar bilan bog'liq ekanini isbotlab beradi.[2] M.Mirtojiyev "O'zbek tili semasiologiyasi" kitobida esa o'zbek tilida so'z ma'nolarining o'zgarishi va ularning ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishini tahlil qiladi. U ayrim so'zlarning ochiq qo'llanishi jamiyatdagi axloqiy va madaniy normalar bilan chegaralanishini ko'rsatadi. Tilshunosning ta'kidlashicha, leksik birliklarning semantik transformatsiyasida nutqiy cheklovlar, xususan, evfemizmlar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tabu hodisasi ham til taraqqiyotining tabiiy qismi sifatida, so'zlarning bilvosita qo'llanishi orqali ijtimoiy qadriyatlarini saqlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.[3] A.Omonturdiyev "Professional nutq evfemikasi" kitobida tabuga yaqin bo'lgan evfemizm hodisasini professional nutq doirasida tahlil qiladi. Xususan, u jamiyatdagi har bir sohalar orqali tabu bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlarning evfemik variantlari ko'rsatib, asoslab beradi[4].

A.A.Reformatskiyning "Vvedenie v yazykovedenie" umumiy tilshunoslikka oid ushbu kitobida tabu so'zlarning nutqda ishlatilishi, ularning evfemizmlar bilan almashtirilishi tilning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqishini izohlaydi. Bu yondashuv tilshunoslikda tabu fenomenini nazariy jihatdan asoslaydi.[5] M.Sharifxo'jayevning "Tabular ijtimoiy birlik sifatida" maqolasida ham tabu hodisasi o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy birliklarni mustahkamlash mexanizmi sifatida o'rganilgan. U shu orqali tabularning axloqiy va tarbiyaviy vazifalarini ko'rsatib beradi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tabu hodisasining lingvistik tabiati va uning ijtimoiy funksiyalarini yoritishda bir necha metodlardan foydalanildi. Avvalo, deskriptiv usul orqali o'zbek va ingliz tillaridagi tabu birliklarning lug'aviy hamda semantik xususiyatlari tavsiflandi. Qiyosiy-tarixiy usul yordamida turli xalqlarning tilida uchraydigan tabu hodisalari solishtirilib, ularning umumiy va xos tomonlari aniqlandi. Shuningdek, sotsiollingvistik yondashuv tabu birliklarining jamiyat hayotidagi vazifalarini, ularning axloqiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liqligini ochib berdi. Diskurs tahlili esa tabu birliklarining real nutqiy jarayonlarda qo'llanishini o'rganishga imkon yaratdi.

Tahlil va natijalar. Tabu hodisasining lingvistik mohiyatini o'rganish va tarixiy ildizlari keng tahlil qilinishi shunisi bilan yanada ahamiyatlidir. Shuningdek, tabu fenomenining ijtimoiy va madaniy funksiyalari, o'zbek va jahon tillarida kuzatiladigan umumiylik va xoslik jihatlarini ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari misolida tabu hodisasining qadimiy ildizlari, folklor va marosimiy nutqda ifodalanishi hamda zamonaviy nutqiy jarayonlardagi ko'rinishlari alohida yoritiladi.

Tabu fenomeni o'rganilish jarayoni til taraqqiyotida muhimligining sababi shundaki, u tilning ijtimoiy vazifalarini, semantik rivojlanish qonuniyatlarini va nutqiy me'yorlash jarayonlarini chuqur anglash imkonini beradi. Tabu birliklar evfemizm, disfemizm va boshqa til hodisalarining shakllanishiga sabab bo'lib, lug'at boyligining kengayishi va ma'no ko'chish jarayonlariga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, tabu fenomenini o'rganish orqali jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini, diniy taqidlari va axloqiy me'yorlari tilga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash mumkin bo'ladi. Demak, tabu tilning faqat leksik tizimiga emas, balki uning pragmatik va sotsiollingvistik rivojlanish jarayonlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan universal hodisa hisoblanadi. Chunki tabu, bir tomondan, lingvistik hodisa sifatida nutqiy jarayonlarni tartibga soladi, ikkinchi tomondan esa, sotsiologik va psixologik mexanizm sifatida jamiyatda ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Shu bilan birga, tabu insoniyat madaniyatida qadriyatlarini saqlash, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va nutq madaniyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Tabu hodisasi til va jamiyat o'rtasidagi murakkab fenomen sifatida lingvistik va antropologik tadqiqotlarda uzoq yillardan beri o'rganib kelinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabu nafaqat leksik yoki semantik hodisa sifatida, balki insonning ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayotida ham markaziy rol o'ynaydi. K.Allan va K.Burridjning tadqiqotlariga ko'ra, tabu insonning xulq-atvorini ijtimoiy cheklovlar orqali tartibga soladi, shuningdek nutqni senzura qilish jarayoni orqali yangi leksik va semantik shakllanishlarni rag'batlantiradi. Mualliflar shuni alohida ta'kidlaydiki, til insonni yomon taqdir va boshqalar e'tirozidan himoya qilish vositasi sifatida ishlatiladi, shuningdek, dushmanlarga qarshi qurol sifatida va hissiy holatlarni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, tabu hodisasi tilning evolyutsiyasiga hissa qo'shadi. Bu holat orqali mavjud leksik birliklarni yangilash, ba'zi

so'zlarni e'tibordan chetda qoldirish va semantik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

O'zbek tilida lingvistik tabu va evfemizmlarning semantik va funksional xususiyatlarini izohlab M.Mirtojiyev shunday deydi: "Lingvistik tabu faqat leksik birliklarda kuzatiladi, ularning qo'llanilishi ko'pincha evfemizm orqali yumshatiladi. Masalan, ba'zi so'zlarning ochiq aytilishi jamiyatdagi axloqiy va madaniy me'yorlar bilan chegaralanadi, natijada ular nutqda muloyimroq yoki bilvosita shaklda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, evfemizm tabu so'zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qo'llanilishining vositasi sifatida xizmat qiladi va jamiyat qadriyatlarini saqlashga yordam beradi, bu esa tabu hodisasining lingvistik taraqqiyot va ijtimoiy funksiyalarini aniqlashda muhim ilmiy asos hisoblanadi[2].

Antropologik va ijtimoiy nuqtai nazardan, Bronislav Malinovskiy tabularni jamiyat hayotidagi axloqiy va diniy nazorat mexanizmi sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotchining fikricha, tabular faqat nutq yoki leksik birliklar bilan chegaralanmay, balki insonning ruhiy holati, marosimiy va diniy amaliyotlar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir[2]. Unga ko'ra, tabu hodisasi jamiyatda tartib - intizomni ta'minlash va ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlashda markaziy rol o'ynaydi. Masalan, diniy marosimlar yoki muqaddas ob'ektlar bilan bog'liq tabular shaxsning metafizik xavfsizligini himoya qilish bilan birga, ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tabu odamlarni o'z xulq-atvori va nutqida ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga rag'batlantiradi, chunki tabu buzilishi nafaqat shaxsiy xavf tug'diradi, balki jamiyat tomonidan tanqid, ijtimoiy chetlashtirish yoki hatto jazo choralarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, Malinovskiy tabularni inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sifatida talqin qiladi. Ular til va madaniyatga chuqur singib, inson nutqida ba'zi so'zlarni ishlatishni cheklash, ularni bilvosita ifodalash yoki butunlay nutqdan chiqarib tashlash shaklida namoyon bo'ladi. Shu tarzda, tabu hodisasi lingvistik aspekt bilan birga, ijtimoiy va madaniy kontekstda ham o'z ahamiyatini saqlaydi. Bu hodisa jamiyatning axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlash, ijtimoiy birlikni ta'minlash va odamlarni o'zaro hurmat, ehtiyohtkorlik va odob-axloq qoidalariga rioya qilishga yo'naltirishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Natijada, Malinovskiyning antropologik yondashuvi shuni ko'rsatadiki, tabu hodisasi tilning evolyutsiyasidan mustaqil bo'lmay, balki insonlarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi axloqiy va diniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab fenomen sifatida o'rganilishi lozim.

Shu tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, Omonturdiyevning fikricha, tabu va evfemizm hodisasi nafaqat tilning ibtidoiy tuzumi va qabila-urug' tillarida mavjud bo'lgan, balki ularning nutqiy va ijtimoiy funksiyalari ham jamiyat qadriyatlarini saqlash va ijtimoiy tartibni mustahkamlashga xizmat qilgan. Evfemik nutq qadimiy davrlarda ham qo'llanilgan bo'lsa-da, har bir tarixiy davrda uning shakllanishi va qo'llanilish mexanizmlari ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirilgan etnografik va etnolingvistik tadqiqotlar esa tabu va evfemizmlarning nutqdagi ijtimoiy maqsadlarini, ularning funksional rolini va turli tillarda ifodalanish shakllarini yoritib beradi[4]. Shu nuqtai nazardan, bu tadqiqotlar tabu va evfemizm hodisasining til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqligini tushunishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

A.A.Reformatskiyning fikricha esa, evfemik almashtirish orqali tabu so'zlarni ishlatish tilning o'zida mavjud ijtimoiy cheklovlarni aks ettiradi.[5 - 243-bet. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, evfemik almashtirish orqali tabu

so'zlarning qo'llanilishi til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, ijtimoiy qadriyatlarni saqlash va ularni avlodlarga yetkazish jarayonini aniqlashda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi, ya'ni tilning tabiiy evolyutsiyasi va uning ijtimoiy funksiyalari bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, M.Sharifxo'jayevning maqolasida ham o'zbek jamiyatida tabular ijtimoiy birlikni mustahkamlash, axloqiy va tarbiyaviy me'yorlarni saqlash mexanizmi sifatida ishlashini ko'rsatadi (6 - 67). Shu bilan, tabu hodisasi nafaqat individual nutq va lingvistik jarayonlar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy tartib va madaniy qadriyatlarning mustahkamlanishi jarayonida ham muhim rol o'ynaydi.

Shu tarzda barcha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tabu hodisasi lingvistik, madaniy va ijtimoiy qatlamlarni o'zida birlashtirgan kompleks fenomen bo'lib, tilning rivojlanishi, ijtimoiy me'yorlarning saqlanishi va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishida markaziy ahamiyatga ega. Tabu va evfemizm hodisalari insonning nutqiy ijodkorligini rag'batlantirib, ijtimoiy tartibni, madaniy qadriyatlarni va lingvistik evolyutsiyani bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur maqola yuzasidan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, tabu hodisasi lingvistik jihatdan nafaqat leksik

birliklarda namoyon bo'lib, balki u ijtimoiy va madaniy kontekstlarda ham faol rol o'ynaydi. Tabu so'zlarning qo'llanilishi inson nutqida ba'zi mavzularni ochiq aytishdan cheklanish, ularni bilvosita ifodalash yoki evfemik vositalar orqali yumshatish bilan bog'liq bo'lib, bu til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Ma'lumki, tabu hodisasi lingvistik rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida tilning evolyutsiyasini rag'batlantiradi, mavjud leksik birliklarning semantik transformatsiyasi va yangi leksik ifodalar paydo bo'lishiga turtki beradi.

Shuningdek, tabu ijtimoiy funksiyalar nuqtai nazaridan jamiyat me'yorlarini mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni saqlash va avlodlar avlodga yetkazish, shuningdek, ijtimoiy tartib-intizomni ta'minlashga xizmat qiladi. Tabu hodisasi insonning nutqiy ijodkorligini rag'batlantiradi, jamiyatdagi noqulay yoki zararli mavzulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga yo'naltiradi va madaniy qadriyatlarni himoya qiladi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, tabu hodisasi nafaqat tarixiy va etnolingvistik jihatdan qadimiy ildizga ega, balki zamonaviy nutqda ham o'z o'rnini saqlab qolgan murakkab va ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. Umuman olganda, tabu hodisasi tilning lingvistik tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarish orqali jamiyat va til o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlovchi vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Allan K., Burridge K., Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press, 2007
2. Bronislaw Malinowski. Magic, Science and Religion and Other Essays. Beacon press: Boston, 1948
3. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent: "Mumtoz so'z". 2010, B-122
4. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. - Toshkent: Fan. 2006
5. Реформатский А.А. Введение в языковедение: Учебник для вузов Под ред. В. А. Виноградова. 5-е изд., испр. - М.: Аспект Пресс, 2004
6. Sharifxo'jayev M. Tabular ijtimoiy birlik sifatida. Ilm sarchashmalari ilmiy-nazariy, metodik jurnali Toshkent.: 2024 10-son